

HEROES OF UZBEK PEOPLE ON THE FRONT DURING THE SECOND WORLD WAR

Kurbanova Hilola Gulomovna,
Karmana district of Navoi region 24
a history teacher at the school

Abstract Words - In this article, the heroes who gave their lives for our country, the courage of Jurahon Usmanov are among the brave sons of the Uzbek people. Born and raised in the village of Savat in the Syrdarya region, Jo'rahon went to the front. We are talking about Jurahon Usmanov, who spared no effort to make our country prosperous.

Keywords - Those were the tragic days of our people, and we were able to overcome these difficulties with patience and solidarity.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONLIK LARNING FRONTDA KO'RSATGAN QAHRAMONLIK LARI

Qurbanova Hilola G'ulomovna
Navoiy viloyati Karmana tumani 24
maktab tarix fani o'qituvchisi

Аннотация Сузлар - Ushbu maqolada vatanmiz uchun jon kuyar xalqmiz deb jon bergan qahramonlar, Jo'raxon Usmonov jasorati o'zbekning mard jasur farzandlaridan. Sirdaryo viloyati xolos tumanidagi savat qishlog'ida tug'ilib o'sgan Jo'raxon frontga otlandi. Bizni vatanmiz gullab yashnashi uchun uzini bor kuch mahorati ayamgan Jo'raxon Usmonov xaqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar - Usha davrlar xalqmiz boshidan kechirgan og'ir musibatli kunlar bo'lgan va bu qiyinchiliklarni sabir bilan birdamlikda xarakat qilib engib o'tishga tuyassar bo'lganmiz

Unda jahon urushining dastlabki azobini tortgan Brest qal'asi, Moskva, Leningrad, Stalingrad shaharlari, Yevropa davlatlari va nihoyat urush olovi yoqilgan Germaniya hamda uning poytaxti Berlin shahri uchun bo'lgan janglarda sobiq sovet armiyasi safida hamda partizanlik harakatlardagi o'zbek jangchilarining qahramonliklari. Dnper daryosini kechib o'tishda Toshkentda tuzilgan 441- o'qchi diviziya jangchilari alohida jasorat namunalarini ko'rsatadilar. Fashistlar o'q yog'dirib, ularni yo'q qilishga qattiq harakat qiladi. Tirik qolganlardan 10 jangchi rota komandiri Jo'raxon Usmonov boschchiligidan madad kelguncha ikki kecha-yu Kunduz istehkomni mahkam egallab turdi. Nihoyat yordamga qo'shimcha bo'linmalar kelishga ulgurdi. Bo'linmaning barcha jangchilari yuksak mukofotlarga sazovar bo'ldi. Jo'raxon Usmonov o'zbekning mard va jasur farzandlaridan. Sirdaryo viloyati xovos tumanidagi savat qishlog'ida tug'ilib o'sgan Jo'raxon navqiron yoshida frontga otlanadi. Urush shoshilinchi bo'lsa ham harbiy bilimlarni puxta egallab, jangovar qurollarni to'la-to'kis o'rganadi. 1943-yilning kuzida Belarusda serjant Jo'raxon Usmonov xizmat qilayotgan qismiga "Soj daryosidan o'tib, uning g'arbiy yoqasidagi plasdarm egallasin", degan jangovar buyruq keladi. Bu murakkab va og'ir topshiriqni bajarish uchun baquvvat, kuchli askarlar tanlab olinib, shtrumchi otryad tuziladi. Ular orasida o'zbek jangchisi Jo'raxon Usmonov ham bor edi. Baquvvat kelishgan jo'raxon otryad komandirining yordamchisi etib tayinlanadi. Otryadning maqsadi qat'iy: qo'qqisdan hamla qilib, tong yorushguncha dushman egallab turgan tepalikni tozalab uni to'la ishg'ol qilish edi. 1944-yilda chiqarligan jangovar varaqada bu jang tafsilotlari. O'zbek farzandi serjant Jo'raxon Usmonovning ko'rsatgan jasorati haqida shunday deb tariflar berilgan. Tepalik yoniga Usmonov guruhi yashirinchcha chuqurlikdan o'tib boradi. Shunday bo'lsa ham dushman payqab qoldi va birdan tarillab pulemyot ishga

tushadi. Jangchilar yerga yotib oladilar. Tepalikning tagi ochiq bo`lib barcha xatti-harakatlar dushman nazorati ostida edi. Qilt etishning iloji yo`q. Tong yaqinlashib kelayotir. Vaqt ziq ana shunda Usmonov bir qarorga keladi.. Jo`raxon pulemyot otib turgan tepalikka emaklab boradi. Yo`lda granatasini chekasini sug`urib dushmaniga qaratib irg`itdi. Granata pulemotchining naq ustiga tushib portlaydi. Olov, o`t, o`lim yog`dirlib quroldosh do`stlarini qirayotgan pulemot tindi. Lekin jang davom etardi. Ertalab dushman jangchilmizni egallab olgan pozitsiyasidan surib chiqarmoqchi bo`lib, hujum boshlaydi. Patronlar tamom bo`layotgan, granata ham tugagan edi. Boz ustiga shu payt otryad komandiri leytenant Ozerovga o`q tegib qattiq yarador bo`ladi. Mas`uliyatni jo`raxon o`z zimmasiga oladi. Jangchilarning yuziga dovdirash alomatlari paydo bo`lgani ko`rib serjant usmonov. Bir qadam ham chekinmaysizlar! Dushmanni yo`q qilguncha shu yerda turamiz! Deydi. Komandirning epchilligi va topqirligi jangchilarni ancha ruhlantirdi. Jang yanada ashaddiy tus oladi. Jo`raxonning o`zi o`n fashistni o`ldiradi. Qolganlarni uning janglari va yetib kelgan bo`linma askarlari qirib tashlaydi. Serjant Jo`raxon Usmonov avvalgi ko`rsatgan qahramonlikalari uchun qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlangan edi. Bu jangda ko`rsatgan mardligi, jasorati, qahramonligi uchun unga Sovet ittifoqi Qahramoni unvoni beriladi. Biz xozir yurtmiz uchun jon berishga ham tayyor bo`lgan jo`raxon usmonov xaqida so`z yuritdik vatanmiz uchun qanchadan qancha insonlar urushda yurtmiz tinchligi uchun jon berishgan va qon to`kishgan urush qatnashchilariga bitta qahromonmiz emas bizni yurtimizda jo`raxon usmonovga o`xshagan jasur, mard, va elimiz suygan qahramonlarmiz juda-juda ko`pchilikni tashkil qiladi. Dneprni birnchi bo`lib kechib o`taganlar orasida Buxorolik starshina vali Nabiev andijonlik qambarali do`smatov, Qoraqalpog`istonlik Xudaybergan SHoniyofov, shofirkonlik xalloq aminov romintanlik, Sharif ergashov buxorodan chiqqan T.A.Tixonov va boshqalar bor edi. Dneprni kechib o`tishda uning o`ng qig`og`idagi istehkomlarni egallahda ko`rsatgan jasorati uchun jami 26 o`zbek yigitiga Sovet ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan. Kurskdagi g`alaba va dushmanning Dneprdan uloqtirib tashlanishi natijasida ikkinchi jahon urushining borishida tub burilish yasaldi. Bashiryat boshida misilsiz kulfatlar yog`dirgan ikkinchi jahon urushi frontlarida bizni yurtmiz mard o`g`lonlari ham juda katta jasoratlar va hamda tarifga sig`mas qahramonliklarni namayon etgan. O`zbekiston mudofaaning moddiy ehtiyojini ta`minlashda ham nimaiki zarur bo`lsa, barchasini ayamay sarfladi. Chunonchi, urush yillarida aholi tomonidan mudofaa jamg`armasidan 649,9mln. So`m naqd pul, 4 mlrd so`m. yana qator tarixiy siymolar “SHo`ro rahbaryatida taktik reja bo`lgan, lekin Gitler bir qadam ilgari edi”, yoki “urush borasida rejalar mavjud edi. Lekin keskin o`zgargan vaziyat bu rejalarini amalga oshirish imkonyatini bermagan”. Agar mudofaa rejasi bo`lganda edi qo`shnilar va texnika umuman boshqacha joylashtirilgan bo`lardi. Chegara hududlarida esa, bu narsa qilinmagan, stalinning asosiy xatosi mudofaaga tayyorgarlik ko`rmaganiga emas hujum vaqtni to`g`ri bashorat qila olmaslidigidir. Agar biz birinchi bo`lib hujum qilsak, millionlab insonlar umrini saqlab qolish mumkun bo`lardi. Olmoniya bilan urushning muqarrar ekanligini bilgan holda SSSR rahbaryati urushni imkon qadar kam qon to`kish bilan o`ziga hudduda o`tkazishga harakat qilgan. Xulosa urnida shuni aytsak bo`ladiki usha davrlar yani urush yillari bizni vatanmiz xam ko`p davlatlar qatori og`ir musibatlari kunlar boshdan kechirgan xozirgacha sanab va biz ko`rib utgan bizni o`ktam mard, jasur, o`g`lonlarmiz vatanmiz tinch osuda bo`lishi uchun o`zlarini jon jahdlari bilan kurashib dushmani mag`lub etishgani barchamizga ayon azizlarim xozirgacha bo`lgan o`zgarish yurtmizdagи chirolyi imorat va binolar bularni orqasida juda katta mehnat va izlanishlar yotibdi. Xozir mana shu yili biz urushda g`alaba qilganmizga qarib 75-yil bo`libdi bunday ulug` g`alaba ota bobolarmiz urush payt yovga tik boqib ularni yanchib hech narsadan qurqmasadan qilgan janglarining maqsulidir. Va shu o`rinda so`zimni yakunlar ekanman mana shunday yurtmiz xar doim gullab yashnab yuraversin, jonajon vatanmizga hech qachon ko`z tegmasin aziz yurtdoshim.

Foydalanimizga adabiyotlar:

1. lex.uz,
2. Uz tarix.uz
3. Tarix kitobi